

JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISH SOHASINI ILMIY TADQIQ ETISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich

*O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori*



Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish sohasini ilmiy tadqiq etishning amaldagi holati, sohada amalga oshirilgan islohotlar tahlili, mavjud imkoniyatlar va ilmiy resurslardan samarali foydalanishning istiqbolli natijalari tadqiq etilgan, kriminologik tadqiqot jarayonlarini takomillashtirishga oid mulohazalar bayon etilgan. Kalit so'zlar: jinoyatchilikni ilmiy tadqiq qilish, yangi avlod tadqiqot muassasasi, xalqaro hamkorlik, davlat hisoboti, kriminogen vaziyatni ilmiy baholash, kriminologik tadqiqotlar.

Abstract. The article examines the current state of scientific research in the field of ensuring public safety, combating and preventing crime in our country, analyzes the large-scale reforms implemented in the field, examines the promising results of the effective use of existing opportunities and scientific resources, and presents considerations for improving criminological research processes.

Keywords: scientific research into crime, new generation research institution, international cooperation, state reporting, scientific assessment of the criminogenic situation, criminological research.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Agar hamma birdek jon kuydirib, oilalar muammolaridan to'liq xabardor bo'lib, ularni hal etishga ko'maklashgan, jinoyatchilikning barvaqt oldini olganda edi, bugun natijalar umuman boshqacha bo'lardi. Afsuski, jinoyatchilikka qarshi kurashishda haligacha eskicha ishlash tizimidan voz kecha olmayapmiz. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bu faoliyatga ko'rsatkichlarni oldingi davr bilan taqqoslash orqali baho berib kelmoqda. Aslida bitta bo'lsa ham jinoyat bo'lgani hammamizni tashvishga solishi kerak", deb aytgan so'zlari zamirida barcha davlat organlari va tashkilotlari oldida jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish yo'nalishida bajarilishi zarur bo'lgan keng ko'lamli vazifalar turganligi ma'lum bo'ldi [1].

Davlat rahbarining yuqorida keltirilgan fikrlari asosida mamlakatimizda oxirgi yillarida olib borilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida inson huquqlari va jamoat xavfsizligini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Mazkur islohotlar hamda jamiyat hayotini tartibga solish va rivojlantirish maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilangan chora-tadbirlar jinoyatchilikka qarshi kurashishda, shuningdek jamoat xavfsizligini, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Davlatimiz rahbarining shaxsiy tashabbuslari asosida mahallalarda joriy etilgan "mahalla yettiligi" institutining samaradorligi natijasida, eng quyi tuzilmalarda keskin ijtimoiy munosabatlarni erta aniqlash, ularni bartaraf etish, aholining ijtimoiy nochor qatlamiga manzilli yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash borasida qator ijobiy natijalarga erishildi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilgan istiqbolli islohotlar natijasida ijtimoiy hayot darajasi sezilarli darajada yaxshilangani, jinoyatchilik jilovlangani, barcha mahallalarda xavfsiz, tinch va osoyishta muhit yaratish, hududlarda ilg'or tajriba va amaliyotlarni joriy etish bo'yicha muhim natijalar qo'lga kiritilganligini e'tirof etish lozim. Bunga misol sifatida bir qator faktlarni keltirish mumkin.

Jamiyat hayotining muhim indikatorlari yuzasidan dunyo mamlakatlari reytingini yuritib boruvchi "Numbeo" tadqiqot platformasining "Safety Perception Index" (Xavfsizlikni baholash indeksi) bo'yicha 2021–2024-yillar oralig'ida mazkur reytingda O'zbekiston eng yaxshi natijani (69,5 ball, 29-o'rin) qayd etib, jahonning 117 ta mamlakati orasida eng xavfsiz davlat deb tan olindi [2].

Shuningdek, Butunjahon odil sudlov loyihasi (World Justice Project, AQSH) tashkiloti tomonidan har yili o'tkaziladigan Huquq ustuvorligi indeksining "Tartib va xavfsizlik indikator" bo'yicha O'zbekiston 2024-yilda dunyoda 142 ta davlat orasida 17-o'rinni, Osiyoda 49 ta mamlakat orasida 5-o'rinni, Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti davlatlari orasida esa 1-o'rinni egallagan [3].

Bundan tashqari, oxirgi yillarda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar orasida O'zbekiston har 100 ming aholiga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar soni bo'yicha eng xavfsiz davlat bo'lib kelmoqda.

Ushbu muvaffaqiyatlarning barchasi davlatimiz rahbarining yangi O'zbekistonni barpo etish borasida olib borayotgan oqilona siyosatining hamda bunyodkor xalqimizning fido-korona mehnati va kelajakka bo'lgan ishonchi natijasidir.

Darhaqiqat, jinoyatchilik insoniyatning farovon turmushi va osoyishta hayot kechirishiga tahdid soladigan salbiy hodisa sifatida har qanday davrda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning oldini olish hamda unga qarshi kurashish barcha zamonlarda davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblangan. Hozirgi zamonaviy dunyoning huquq-tartibotni muhofaza qilish, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash sohasi rivojlangan davlatlarida ham jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashish jarayoni jamiyat xavfsizligi va davlat imijiga ta'sir ko'rsatuvchi strategik ahamiyatga ega vazifa bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda dunyoda barcha sohalarda jadal rivojlanish kechayotgan bir davrda jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan jinoyatchilik ham rivojlanib, yangidan yangi ko'rinishlarini namoyon etmoqda. Bu esa eskicha qolipdan voz kechib, endilikda jinoyat oqibatlar bilan kurashishni emas, balki jinoyatchilikning asl omillarini aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish orqali uning barvaqt oldini olishni ustuvor maqsadga aylantirishni taqozo etmoqda.

Shu bilan birga, o'tkazilgan ilmiy tahlillar jamiyatimizda ijtimoiy hodisa sifatida sodir etilayotgan jinoyatchilikning haqiqiy sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni barvaqt bartaraf etish faoliyati yetarlicha tashkil qilinmaganligi, ularning natijadorligini monitoring qilishning ta'sirchan tashkiliy-huquqiy mexanizmi to'liq yo'lga qo'yilmaganligini ko'rsatmoqda.

Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy dunyo insoniyatga cheksiz imkoniyatlar bilan bir qatorda, davlatlar xavfsizligiga ko'rinmas tahdidlarning paydo bo'lishi, transmilliy jinoyatlar hamda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishini keskin ortishi, kiberjinoyatlarning yangidan-yangi turlarida namoyon bo'lishi kabi salbiy xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Makon va chegara bilmas ayrim turdagi jinoyatlar ommalashib, hududiy jihatdan o'zaro aloqador bo'lmasa-da, ularning salmog'i, tuzilishi, demografiyasiga oid umumiy alomatlari mavjud.

Aynan mana shu masalalarni inobatga olgan holda, Davlatimiz rahbarining shaxsiy tashabbuslari bilan O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya instituti tashkil etilib, faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-yanvardagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-10-son farmoni[4]. bilan respublikada kriminogen vaziyatga oid chuqur tadqiqotlarni amalga oshirish, jinoyatchilik tendensiyalarini tizimli ravishda tahlil va prognoz qilish, uning barcha omillarini kompleks ilmiy diagnoz asosida aniqlash, mamlakatning ma'muriy hududiy birliklarida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda jinoyatchilikning oldini olish yo'nalishidagi chora-tadbirlar to'g'ri tashkil etilganligini ilmiy baholash, ilmiy tadqiqot loyihalarini bajarish orqali amaliyotida mavjud muammolarni hal etish bo'yicha kompleks yechimlarni ishlab chiqish, xorijiy davlatlar kriminologiyasini doimiy o'rganish, ilg'or tajribalarni mamlakat hududida joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish Institut faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi.

Kriminologiya tadqiqot instituti jinoyatchilikka qarshi kurashish va ularning oldini olish faoliyatini ilmiy tadqiq qilishga ixtisoslashtirilgan Markaziy Osiyodagi yagona hamda kriminologik

tadqiqotlar o'tkazish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda ularni oldini olishning kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'yicha maxsus vakolatlarga ega institut hisoblanadi. Institut kriminologik faoliyatni ilmiy va ekspertlik jihatdan ta'minlashga ixtisoslashgan, ichki ishlar vazirligi tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi, yuridik shaxs maqomiga ega, respublika ilmiy-tadqiqot muassasasidir.

Kriminologiya institutiga mamlakat Bosh vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan boshliq rahbarlik qilishi, o'z faoliyati bo'yicha bevosita Vazirlar Mahkamasiga hisobot berishi belgilandi. Bundan tashqari, Institut jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha vazifalarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda amalga oshiradi, uning faoliyatiga to'sqinlik qilish, tadqiqot hisobotidagi ma'lumotlarni o'zgartirishi uchun ta'sir ko'rsatish taqiqlanishi huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Institutning asosiy vazifalari sifatida jinoyatchilik tendensiyalari va omillarini ilmiy metodlar orqali kompleks aniqlash, tizimlashtirish va uning salbiy tendensiyalarini, shuningdek, aholining e'tiroziga sabab bo'layotgan ijtimoiy taranglik holatlarini kompleks tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, kriminologik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va kriminologiya sohasidagi ilmiy ishlanmalarni amaliyotiga joriy etish, tadqiqotchilarni ilmiy daraja va unvonlarga taqdim qilish, surishtiruv va dastlabki tergov organlariga uslubiy ko'maklashish, xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan ilmiy hamkorlikni samarali tashkil etish va qo'shma ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish belgilandi.

Mazkur Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida, Prezidentimizning "Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-yanvardagi PQ-22-son qarori [5], Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-iyuldagi "Kriminologik faoliyatni ilmiy ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 445-son qarori [6], hamda 10 ga yaqin idoraviy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar asosida Institut faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha "Yo'l xaritasi", Institutni rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari, kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish tartibi va metodikasi hamda Institut nizomi tasdiqlandi.

Jamiyat taraqqiyotida, shu jumladan jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil etishda fan-texnika yutuqlarini rad etish, ushbu muammoga yuzaki qarash ish samarasining hamda kuch va vositalarni qo'llash unumining kamayishiga olib kelishini unutmashlik darkor [7].

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish faoliyatini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha Institutga har chorak yakunida kriminologiya sohasida bajarilgan ilmiy-tadqiqot loyihalarini va dissertatsiyalar, jinoyatlar omillariga ilmiy diagnoz qo'yish, jinoyatchilik tendensiyalarini tahlil va prognoz qilish natijalari asosida "Jinoyatchilik omillari davlat hisoboti" hamda "Jinoyatchilik tendensiyalari davlat hisoboti"ni, har yil yakunida "Kriminologik tadqiqotlar davlat hisoboti" va kriminogen vaziyat yuzasidan tahliliy axborotni tayyorlash hamda ularni Vazirlar Mahkamasi va huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlarga kiritish vazifasi yuklatildi.

Ayni paytda mazkur Davlat hisobotlarini respublikada qayd etilgan umumiy jinoyatchilik, uning hududlar kesimidagi ko'rinishi, jinoyatlarning sodir etilish sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlar, mahallalar hududida sodir etilgan jinoyatlarning holatlari ilmiy tahlil, prognoz va diagnoz xulosalarga asoslangan holda ilmiy-metodologik usullardan (tahlillar, diagrammalar va jadvallar ko'rinishida, bilishning analiz va sintez, deduksiya va induksiya, mantiqiylik, tarixiy-huquqiy tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, kuzatish usullari) foydalanib tayyorlash jarayonlari izchillik bilan olib borilmoqda.

Ahamiyatli jihati shundaki, mamlakatda jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish faoliyatini amalga oshirishga nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki barcha darajadagi davlat tashkilotlari va muassasalari, keng jamoatchilik birdek mas'ul hisoblandi. Shundan kelib chiqib, jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida "g'oyadan amaliyotgacha" degan yangi tamoyil asosida ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini bajarish orqali fanlararo bilimlarni qo'llash tizimi yaratilmoqda. Institut ilmiy tarkibi lavozimlarini yetuk malakali ichki ishlar organlari xodimlari bilan bir qatorda, yuridik, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika, texnika, iqtisodiyot, tibbiyot va geografiya yo'nalishlari bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lgan, har tomonlama yetuk kadrlar bilan

jamlashga oid muhim qoidalar Davlat rahbarining hamda Vazirlar Mahkamasining yuqorida keltirilgan qarorlarida belgilangan.

Kriminologiya instituti faoliyatini optimallashtirish hamda zamonaviy xalqaro standartlarga olib chiqish maqsadida, xorijiy davlatlar kriminologiya institutlari faoliyati va ishlash mexanizmlarini o'rganish natijalarini umumlashtirish asosida yangi avlod ilmiy tashkiloti – "Smart ilmiy-tadqiqot muassasasi" konsepsiyasini ishlab chiqish va uni Institut faoliyatida sinovdan o'tkazish joriy etildi. Mazkur konsepsiya asosida mamlakatimizda faoliyat yuritib kelayotgan barcha ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyati xalqaro standartlar asosida tubdan takomillashtirilib, zamonaviy darajaga olib chiqish rejalashtirilgan.

Hozirgi davrda jinoyatchilik bilan xalqaro miqyosda kurash olib borish alohida izquvarlar guruhi yoki yakka izquvar zimmasidagi vazifa bo'lib qolmasligi lozim. Bu vazifani bajarish nafaqat ayrim davlatlar o'rtasida o'rnatilgan xalqaro kelishuvlar, har bir davlat qonunchiligi, texnik salohiyati asosida amalga oshirilishni, balki yaxshi niyat maqsadida jinoyatchilikka qarshi kurashdan bir xilda manfaatdor bo'lgan davlatlarning umumiy faoliyat ko'rsatishi talab etadi [8].

Xalqaro hamkorlikni tashkil etish, jumladan yetakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan qo'shma ilmiy-amaliy tadqiqotlar loyihalarini amalga oshirish, ilmiy kadrlarni o'qitish sohasida o'zaro hamkorlik bo'yicha memorandum va bitimlar tuzish Institut faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Institut tashkil etilganiga qisqa vaqt o'tganligiga qaramay, kriminologiya sohasida bir qator xorijiy hamda xalqaro muassasalar bilan ilmiy hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi.

Ayni paytda Xitoy Xalq Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Jinoyatchilik profilaktikasi instituti, Vengriya Islohot cherkovi Karoli Gaspar universitetining Jinoiy fanlar instituti, Turkiya Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Politsiya Akademiyasi, Koreya ilmiy tadqiqot va adliya instituti, Hindiston Respublikasi IIV Milliy kriminologiya va sud ekspertizasi instituti, Germaniya Respublikasi Quyi Saksoniya Kriminologiya tadqiqot instituti va boshqa bir qator xorijiy ilmiy muassasalar bilan bevosita hamkorlik o'rnatildi.

Hamkorlar bilan birgalikda yaqin kelajakda mamlakat hududiga kirib kelishi xavfi mavjud bo'lgan yangi jinoyat turlari hamda usullarini o'z vaqtida aniqlash hamda ularni respublikaga kirib kelishining oldini olish, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashi yo'nalishida faol tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Respublikada kuzatilayotgan jinoyatchilik tendensiyalarini tahlil va prognoz qilish, jinoyatchilik omillarini ilmiy diagnoz qilish, qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish orqali ularni bartaraf etish, ilmiy tadqiqotlarni huquq-tartibot amaliyotidagi muammolarning manzilli hal etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida, Kriminologiya tadqiqot instituti tomonidan quyidagi turdagi ilmiy tadqiqot loyihalarini kompleks bajarish va natijalarini amaliyotga tatbiq etish belgilandi:

jinoyatlarning barcha turlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'tkazish (JKda 284 jinoyat turi mavjud);

jinoyat sodir etgan shaxslar bilan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish (voyaga yetmaganlar, maktab o'quvchilari, kollej va texnikum hamda oliy o'quv yurtlari talabalari, yoshlar, ayollar, erkaklar bo'yicha);

maxsus toifadagi shaxslar bilan ilmiy tadqiqotlar o'tkazish (mahkumlar, sudlanganlar, narkologik hamda ruhiy kasallikka chalinganlar shaxslar);

barcha hududlar bo'yicha zamonaviy innovatsion "hudud metodika"lari ishlab chiqish;

jinoyat ishlari bo'yicha tergov o'tkazish uchun o'quv qo'llanmalar ishlab chiqish;

ilmiy laboratoriyada jinoyatchilikka qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan mahalliy jihozlar yaratish.

O'ylaymizki, kriminologiya sohasini takomillashtirishga qaratilgan Davlatimiz rahbari, Hukumat hamda Vazirlik tomonidan belgilangan topshiriqlar ijrosi Kriminologiya tadqiqot instituti hamda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan o'zaro hamkorlikda, o'z vaqtida va sifatli bajarilishi mamlakatimizda jinoyatchilik darajasi kamayishiga, xavfsizlik va huquq-tartibot sohasida zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanishga, ijtimoiy-siyosiy sohalarimizga xorijiy investitsiyalarni erkin kirib kelishiga muayyan darajada hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 27-iyul kuni Jinoyatchilikning oldini olish, davlat idoralari va jamiyatning bu boradagi mas'uliyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/1914>.
2. "Numbeo" tadqiqot platformasining rasmiy veb-sayti // https://www.numbeo.com/crime/rankings_current.jsp.
3. Butunjahon odil sudlov loyihasi (World Justice Project, AQSH) tashkilotining rasmiy veb-sayti // <https://worldjusticeproject.org>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-yanvardagi PF-10-son Farmoni // Lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kriminologiya sohasida ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 15-yanvardagi PQ-22-son qarori // Lex.uz
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 24-iyuldagi "Kriminologik faoliyatni ilmiy ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 445-son qarori // Lex.uz
7. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / I., Q.R.Abdurasulova, I.Yu.Fazilov; Mas'ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. –192 b.
8. Kriminologiya:Darslik / Q.R.Abdurasulova, A.G.Zakirova, I.Ismailov va boshqalar. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2023. – 101-b

